



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ QO‘MITASI

100011, Toshkent shahri, A. Qodiriy ko‘chasi, 13 A  
Tel: (71) 244-97-16, Faks: (71) 244-89-12

2022 yil “25” oktabr

20/5-138692 - son

**To‘lov tashkilotlariga**

**Barcha tijorat banklariga**

(ro‘yxat bo‘yicha)

### OGOHLANTIRISH XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 oktyabrdagi PQ-5252-son qaroriga muvofiq:

- 2022-yil 1-yanvardan boshlab **to‘lov tizimlari operatorlari** o‘z to‘lov tizimlarini onlayn nazorat-kassa mashinalariga majburiy ravishda ulashi (*1-bandi b-qismi*);

- 2022 yil 1-fevraldan boshlab **to‘lov tashkiloti, tijorat banklarining** elektron to‘lov xizmatlari (*shu jumladan mobil ilovalar orqali*), shuningdek, elektron tijorat platformalari- **Marketpleyslarning axborot tizimlari** yordamida masofadan turib amalga oshirilgan savdo va pullik xizmatlar bo‘yicha tranzaksiyalarning elektron cheklarida soliq organlari **axborot tizimlariga integratsiyalashgan** va avtomatik tarzda shakllanuvchi fiskal belgilarni **majburiy aks ettirishi** (*5-bandi*);

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 noyabrdagi 943-son qarori 1a-ilova bilan tasdiqlangan nizomga asosan to‘lov tashkilotlar orqali aholi bilan pulli hisob-kitoblar amalga oshirilganda xaridorlarga elektron fiskal chek taqdim qilinishi shartligi belgilangan (*2-bandi 1-qismi*).

Shunga ko‘ra, elektron to‘lov tizimlari orqali amalga oshirilgan to‘lovlar uchun xaridorlarga elektron fiskal belgili cheklarni to‘lov tizimi orqali taqdim qilish maqsadida to‘lov tizimlari vakillari bilan hamkorlikda o‘zaro **ma‘lumotlarni almashish sxemasi** ishlab chiqildi va Fiskal ma‘lumotlar operatorida ma‘lumotlarni qabul qilib olish va uzatish bo‘yicha tegishli texnik imkoniyatlar yaratildi (*sxema va yig‘ilish bayoni ilova qilinadi*).

Yuqorida qayd qilinganlarga asosan, to‘lov tashkilotlari va tijorat banklari tomonidan ilovaga muvofiq yuborilayotgan **sxemaga muvofiq** quyidagilar topshirildi:

- **joriy yilning 26-oktyabr kuniga qadar** Fiskal ma‘lumotlar operatori bilan hamkorlikda ishlar olib borgan holda, **IP-adres hamda Shlyuz orqali ma‘lumot almashish tizimiga ulanish**;

- **joriy yilning 1-noyabr kuniga qadar** aholi bilan pullik hisob-kitoblar amalga oshirilganda xaridorlarga elektron to‘lov tizimi yoki mobil ilova orqali **to‘liq elektron fiskal chek taqdim qilish** tizimini joriy qilish;

- soliq organlarining axborot tizimlariga integratsiyalashni ta‘minlash.

Ushbu muddatda yuqoridagi belgilangan talablar bajarilmagan taqdirda:

- Soliq kodeksining 227<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan **jarima qo‘llanilishi**;

- MJtKning 175-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining **yuz baravari** miqdorida **ma‘muriy jarima** qo‘llanilishi to‘g‘risida **ogohlantiramiz**.

Ilava: 4 varaqda.

**Rais o‘rinbosari**



**A.Fayzibayev**

172.24.28.104

172.24.28.104

172.24.28.104

172.24.28.104

172.24.28.104

172.24.28.104